UO‘K: 821.512.133.09-055.2

HOZIRGI O‘ZBEK AYOLLAR SHE’RIYATIDA FOJIAVIYLIK VA IDENTITET INQIROZI MASALASI

D.V.Abdusalomova

Maqolada zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyatidagi fojiaviylik va identitet inqirozi masalasi o‘rganilgan. Lirik qahramonda shaxsiy “men”ning yemirilishi, ijtimoiy bosimlar ta’sirida shakllanuvchi ruhiy ziddiyatlar va gender stereotiplari bilan to‘qnashuv badiiy matn tahlili asosida ochib berilgan. Zebo Mirzo, Gulnoz Mo‘minova she’rlari misolida ayol “men”ining zaiflashuvi, rad etilish, beqarorlik, ruhiy jarohatlar va o‘zlikni tiklashga qaratilgan ichki kurash jarayonlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *ayollar she’riyati, identitet, identitet inqirozi, o‘zlikdan begonalashuv, ayol obrazi, fojiaviylik.*

В статье исследуется проблема трагического и кризиса идентичности в современной узбекской женской поэзии. На основе анализа художественных текстов выявляются процессы разрушения личного «я» лирической героини, психологические конфликты, обусловленные социальным давлением и гендерными стереотипами. На материале стихотворений Зебо Мирзо и Гульноз Муминовой рассматриваются состояния отчуждения, внутренней нестабильности и душевной травмы, а также формы внутренней борьбы, направленные на восстановление идентичности.

Ключевые слова: *женская поэзия, идентичность, кризис идентичности, трагическое, лирическая героиня, гендерные стереотипы, психологический конфликт.*

Kirish

Zamonaviy adabiy jarayonda shaxsiy identitet inqirozi masalasi eng dolzarb estetik va psixologik muammolardan biri bo‘lib shakllandi. Bu holat, avvalo, insonning o‘z “men”ini anglash, uni himoya qilish hamda uni yangilash jarayonida yuzaga keladigan ichki tanglik, munosabatlar kolliziyasi va ruhiy iztiroblar bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixolog Erik Erikson ta’kidlaganidek, “identitet inqirozi – bu shaxsning o‘zini turli tomondan ko‘rib, chuqur tahlil qilishi va natijada yangi o‘zligini izlash bosqichidir” [1. B. 91]. Mazkur inqiroz paytida inson kimligi, jamiyat va qadriyatlardagi o‘rni haqida qayta fikr yuritadi. Agar shaxs o‘z “men”ini mustaqil shakllantira olmasa, unda identitetning buzilishi, tushkunlik va *“ichki bo‘shliq”* hissi yuzaga kelishi muqarrar. Shu sababli identitet inqirozi faqat psixologik emas, balki ijtimoiy, madaniy, falsafiy va estetik hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Material va metodlar

Maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida shakllangan badiiy-tahliliy, struktural-poetik va qiyosiy-tipologik metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot materiali sifatida Zebo Mirzo, Gulnoz Mo‘minova va Tillaniso Eshboyeva ijodidan ayol identiteti, ruhiy inqiroz, ijtimoiy bosim va o‘zlik muammolari yorqin ifodalangan tanlangan she’rlar olindi.

Materiallar tanlashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

she’rlarda ayol lirik subyektning ichki dunyosi, o‘zlikni anglash va rad etilish motivlarining mavjudligi;

ayolning ijtimoiy rol(lar)i, ijtimoiy bosim va ayol identitetiga oid konfliktlarning badiiy ifodasi;

poetik obrazlar, metaforalar va ritorik tuzilmalar orqali ruhiy inqirozning ifodalanishi.

Tadqiqotda interdisiplinar (fanlararo) metodologiya qo‘llanildi. Adabiy tahlil identitet nazariyasi va fojiaviy dunyoqarash konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirildi. Asosiy nazariy tayanch sifatida E.Eriksonning identitet inqirozi haqidagi qarashlari, S.de Bovuar va J.Batlerning gender nazariyalari, A.Xonnet va Ch.Taylorning “tan olinish” haqidagi konsepsiyalari, shuningdek M.Fuko va T.Moi tomonidan ishlab chiqilgan diskurs va ayol subyektivligi haqidagi nazariyalar qo‘llanildi.

Tadqiqotda diskursiv tahlil ham qo‘llanilib, she’rlardagi ayol obrazi qanday ijtimoiy va madaniy

normativlar orqali shakllantirilgani, qanday nutqiy cheklovlar va ramziy zo‘ravonlik mexanizmlari bilan bog‘langani aniqlashtirildi. Ayniqsa, ayol sukunati, tan olinmaslik, rad etilish va o‘zlikni qayta qurish jarayonlari poetik struktura doirasida tahlil qilindi.

Mazkur metodlar majmuasi ayol identitetining inqirozini nafaqat individual psixologik holat sifatida, balki ijtimoiy, madaniy va estetik jarayonlar bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida ochib berishga imkon berdi.

Natijalar va ularning muhokamasi

Ayol ijodkorlarning asarlari misolida identitet inqirozi mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda ayol ko‘p asrlar davomida erkakka nisbatan “boshqalik” maqomida, ya’ni “ikkinchi darajali” subyekt sifatida qaralib kelgani sir emas. Simona de Bovuar ta’kidlaganidek, erkak doimo jamiyat ko‘zida mutlaq mezon bo‘lib, ayol uning soyasida “o‘zga” (*the Other*) sifatida talqin etilgan [2. B. 267]. Bu talqin ayolning o‘zligini anglash jarayonini murakkablashtirgan. S.de Bovuar nazariyasiga ko‘ra, ayollik shaxsning biologik belgilaridan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy me’yorlar, madaniy stereotiplar va tarbiya tizimi orqali shakllanadi [2. B. 267]. Bu jarayon esa ayolning identitetini doimiy ravishda tashqi me’yorlar bilan belgilanishiga olib keladi. Bu yondashuv Mishel Fuko ilgari surgan diskurs nazariyasi orqali chuqurroq tahlil qilinadi. Fuko nazarida, insoniy identifikatsiyalari (shu jumladan, gender rollari) tabiiy emas, balki diskurslar orqali ijtimoiy va tarixiy kontekstda ishlab chiqiladi [7]. Ya’ni, ayol “qanday bo‘lishi kerakligi” haqidagi tasavvurlar tarix davomida til, adabiyot, din, axloq va siyosiy institutlar orqali shakllanadi va mustahkamlashadi. Ushbu diskurslarda ayol ko‘pincha quyidagi tarzda tavsiflanadi:

- sadoqatli, lekin aldangan,
- muhabbatda fidoyi, lekin rad etilgan,
- g‘ururli, lekin ezilgan,
- o‘z haqiqatini ayta olmay, ichki sukunatda yonayotgan qahramon sifatida [3].

Bu holat ayolning shaxsiy o‘zligini anglashiga to‘sqinlik qilib, ichki psixologik ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Mustaqillik davri o‘zbek ayollar she’riyati aynan ana shu ruhiy jarayonlarning badiiy aksiga aylandi. Ilgari ayollar she’riyatida ijtimoiy-ma’naviy mavzular ustun bo‘lgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda lirik qahramonning ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari, o‘z-o‘zini tahlili, tenglik va erkinlikka intilishi poetik ifodaning markaziga chiqdi. Endilikda ayol shoiralar dardni yashirmaydilar, aksincha, uni estetik hodisaga aylantirib, ichki iztirob, yolg‘izlik, rad etilish, ruhiy bo‘shliq kabi kechinmalarni poetik obrazlar orqali ifodalaydilar. Ulug‘bek Hamdam ta’kidlaganidek, “...inson (shoir) tashqaridan ichkari (botin)ga kirdi va u yerdan turib atrofni kuzata boshladi” [10. B. 82], ya’ni endi she’riyatda inson qalbining nozik va og‘riqli jihatlarini kashf etishga e’tibor qaratilgan. Shoira Halima Ahmedovaning so‘zlari bilan aytganda, “Aslida har bir inson ko‘ngli olamning mo‘jizaga to‘la kitobidir. Ana shu kitobni hayot har kuni varaqlaydi... unda goh shodlik bitiklari, goh iztirob lahzalari to‘lqinlanadi” [11].

Identitet inqirozi ayollar lirikasida ko‘pincha fojiaviylik estetikasiga tutashib ketadi. Chunki o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish jamiyatning gender stereotiplari, ijtimoiy rol kutilmalari va ayolga yuklanayotgan madaniy bosimlar bilan to‘qnash keladi. Ana shu jarayonni Zebo Mirzo, Halima Ahmad, Gulnoz Mo‘minova kabi shoiralar ijodida kuzatish mumkin. Ularning she’rlarida ayolning “ayollik” sifatida emas, balki “inson” sifatida mavjud bo‘lishga bo‘lgan intilishi ko‘pincha konfliktli, fojiaviy va ijtimoiy bosim bilan kolliziya holatida tasvirlanadi.

Ayol identiteti ko‘pincha jamiyat tomonidan belgilangan “ayollik qoidalari” bilan to‘qnash keladi. Shuning uchun ayollar lirikasida quyidagi ziddiyatlar keskinlashadi:

- “men istagan o‘zlik” va “jamiyat mendan kutayotgan rol”;
- “ichki ovoz” va “tashqi baho”;
- “erkinlik talabi” va “gender stereotiplar”.

Shu ma’noda zamonaviy ayollar she’riyati an’anaviy mavzularni emas, balki ruhiy dramatizmni asosiy estetik hodisa sifatida akslantiradi.

Zebo Mirzo she’riyatida subyektning asosiy holati uning uzil-kesil barqaror emasligi, ya’ni “men”ning ikki yoki bir necha qatlarga bo‘linishidir. Shoiraning ko‘plab she’rlarida lirik subyekt:

- o‘zini kuzatuvchi va o‘zini hukm qiluvchi ikki subyektga ajraladi;
- goh kuchli, goh ojiz, goh qat’iy, goh kulfatga taslim bo‘lgan holatlarda namoyon bo‘ladi;
- o‘ziga o‘zi tasalli beradi, o‘zi tanbeh qiladi, o‘zi bilan gaplashadi.

Bu esa identitetning ichdan yemirilishini ko‘rsatadi.

Zebo Mirzoning lirik qahramoni ko‘pincha sevgi qurboni sifatida gavdalanadi, u sevgi yo‘lida iztirob chekadi, o‘z “men”ini sevgan insonining nigohida yo‘qotib qo‘yish darajasiga boradi. Shoiraning mashhur she’rlaridan birida lirik qahramon sevgan insoniga murojaat qilib, alam bilan shunday deydi:

Butun umr sevib o‘tsam-u,
Bir lahza ham sevolmasangiz?

Mazkur misralarda o‘z sevgisiga javob olmagan ayolning iztirobli savoli yangraydi. Sevgan insonining befarqligi lirik qahramonga o‘zini qadrsiz va yolg‘iz his qildiradi. Shoira javobsiz sevgining ayanchli qismatini quyidagi satrlarda yaqqol ifodalaydi:

Sevilgan-u buyuk ishq bilan,
Sevilganin bilmagan biroq!

Bu misra sevgisi qadr topmagan insonning fojiasini jilovlangan ohangda tasvirlaydi. Shoira ritorik savollar, takror va antitezalar orqali lirik iztirob ifodasini kuchaytiradi. Yuqoridagi satrlarda sevgi taqdiridan bexabar qalb manzarasi chizilgan, bu – bir tomonlama muhabbatning fojiaviy ko‘rinishi. Zebo Mirzo bunday holatda ayol ruhiyati qanday larzaga tushishini, sevgi tufayli ichki halovati barbod bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Zebo Mirzo she’rlarida identitet inqirozi ko‘pincha romantik iztirob ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning lirik qahramoni sevgi og‘ushida o‘zini topishga va yo‘qotmaslikka urinadi, biroq javobsiz muhabbat uni ruhiy tanglikka soladi. Shoiraning “Bilaman” she’ri identitet inqirozining eng yorqin badiiy ko‘rinishlaridan biridir. She’r davomida lirik qahramonning o‘ziga past baho berishi, o‘zini inkor etishga moyilligi va sevgida o‘zini tengsizlikda ko‘rishi uning ichki dunyosini belgilovchi asosiy psixologik chiziq sifatida namoyon bo‘ladi.

She’rning ilk misralaridayoq qahramon o‘zini sevgan insoniga teng ko‘rmaydi:

Bilaman: men uning tengi emasdim,
Lekin sevdim tengsiz muhabbat bilan.

Bu misralar shaxsning o‘zini qadrsizlashtirish jarayoniga kirganini ko‘rsatadi. Mashhur psixolog Erik Erikson o‘zining “Identitet: yoshlik va inqiroz” (“Identity: Youth and Crisis”) (1968) asarida shunday fikr bildiradi: “Shaxs o‘z “men”i haqida barqaror tasavvur shakllantira olmasa, unda identitet inqirozi paydo bo‘ladi. Bu holat o‘zini qadrsizlashtirish, ma’nosizlik va ichki bo‘shliq tuyg‘ulari bilan kechadi” [1. B. 91]. Bu hol quyidagi tartibda o‘zining ifodasini topadi: *o‘zini qadrsiz his qilish → identitet inqirozi → ruhiy izdan chiqish*.

Bunday holat identitet inqirozining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon davomida sevgi tuyg‘usi shaxsiy “men”ning izdan chiqishiga, ya’ni o‘zlikning asta-sekin yemirilishiga olib keladi. Shoira o‘zini tabiatdagi eng arzimas jism bilan tenglashtiradi.

Na yog‘du bo‘loldim, na oyman to‘lgan,
Shamollar poyida o‘ynagan xasman.

misralarida lirik “men” o‘zini qadrsiz va ojiz his qilishi anglashiladi. “Xas” va “hazon bargi” kabi obrazlar ayolning ichki bo‘shliq, beqarorlik va sevgida qadrsiz qolgan ruhiy holatini badiiy tarzda ifodalaydi. She’rning eng keskin ruhiy nuqtalaridan biri rad etilishning ichki iztiroblari bilan bog‘liq satrlardir: *U meni baribir tan olmas edi*. Bu lirik “men” uchun eng og‘riqli jihat – tan olinish ehtiyoji qondirilmaganidir. Identitet nazariyalariga ko‘ra, insonning boshqalar tomonidan tan olinmasligi uning “men”ini zaiflashtiradi va shaxsiy identitet inqiroziga sabab bo‘ladi. Tan olinmaslik insonning o‘zini hurmat qilishi va ichki barqarorligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi Erik Erikson, Aksel Honnet va Charles Teylor tomonidan alohida ta’kidlangan [1. B. 22–23; 12. B. 131–136; 13. B. 25–26].

“Sen yuz burgan...” she’rida romantik iztirob tark etilish, yolg‘izlik va bo‘shliq holati orqali ifodalanadi. She’rning boshidan oxirigacha poetik “men”ning ruhiy yemirilish jarayoni kuzatiladi. Ilk satrlari tashqi manzara orqali ichki holatni aks ettiradi:

Sen yuz burgan hazin kechada
Yuzinchi bor barg to‘kdi chinor.

Chinorning barg to‘kish manzarasi ayolning ichki ruhiy iztirobini poetik tarzda aks ettiradi. Tabiatdagi “so‘nish” jarayoni lirik qahramonning ichki bo‘shashuvi va ruhiy tushkunligining badiiy ko‘zgusiga aylanadi.

Rad etilish motivi ushbu misrada ham davom etadi. *“Sevgim, axir senga nima bor?”* degan murojaat lirik qahramonning o‘z tuyg‘ularini qadrsiz deb his etishini va o‘z-o‘zini shubha ostiga qo‘yishini ifodalaydi. Bu satrda qahramon o‘z sevgisini befoyda, yolg‘iz, javobsiz his qiladi.

She’rda ayolning ezilgan, charchagan ruhiy holati yorqin tasvirlanadi: *“Yomg‘irlarda ivigan Ayol…”.* Bu tasvir ruhiy charchoq, ichki og‘riq, suyanchiqsiz qolgan qalbning badiiy ifodasidir.

Zebo Mirzo lirikasi misolida ko‘ramizki, ayol uchun muhabbat faqat ilohiy tuyg‘u bo‘lib qolmay, balki o‘zlikni sinovdan o‘tkazuvchi ruhiy jarayonga ham aylanadi. Zamonaviy o‘zbek ayollar she’riyati o‘ziga xos poetik qiyofa kasb etib, o‘zlikni anglash, gender tengsizligi va ijtimoiy bosimlarga qarshi badiiy kurash maydoniga aylangan. Identitet inqirozi bu adabiy makonda markaziy mavzuga aylanib, ayniqsa, ichki norozilik, bo‘ysunmaslik va shaxsiy haqiqatni poetik vositalar orqali ifodalash shaklida namoyon bo‘ladi. Gulnoz Mo‘minovaning “Aytib

bo‘lmaydigan qo‘shiq” nomli she’ri ana shunday badiiy tafakkur mahsulidir.

She’rda atrofdagilar tomonidan ayolga nisbatan qo‘yilgan kamsituvchi, ziddiyatli talablarga nisbatan ichki qarshilik ifodasi o‘tkir estetik obrazlar orqali berilgan:

Hursan derlar – xo‘rlashar seni,
Gulsan derlar, zo‘rlashar seni,
Ko‘nmoqqa majburlashar seni,
Ayol bo‘lib tug‘ilma Sharqda.

Bu misralarda o‘zligini anglashga urinayotgan ayol atrofdagilarning ikkiyuzlamachiligiga duch keladi, har qanday holatda ham jazoga mahkum, himoyasiz holatdagi subyekt bo‘lib qoladi. Ushbu satrlar orqali ayolning identiteti doimiy inqiroz holatida ekani aks ettiriladi. Lyudmila Gogotishvili ta’kidlaganidek, ayol subyekti ko‘pincha mavjud ijtimoiy normativlarga to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun u “mezon bo‘yicha o‘lchanmaydigan boshqa” sifatida rad etiladi [14].

“*Guvohlaring ko‘r-u kar bo‘lar*...” Bu satrda ayolga nisbatan adolatsizlik jamiyat tomonidan ko‘riladi, ammo e’tirof etilmaydi, jamiyat “ko‘rgan holda ko‘rmaslikka”, “eshitgan holda eshitmaslikka” o‘rgangan. Guvohlarning kar-soqovligi zulmning me’yorga aylanganligi, ayolning yig‘isi esa “oddiy hol” sifatida qabul qilinishini anglatadi.

She’rning keyingi *“Toj Mahal ham bir shoh riyosi”* satri orqali shoira go‘yoki abadiy muhabbat timsoli bo‘lgan yodgorlikni shubha ostiga oladi. Odatda abadiy muhabbat belgisi sifatida tanilgan Toj Mahal bu yerda shohning shaxsiy istagi va hokimiyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu yerda tarixiy-madaniy obrazlar qayta talqin etilib, ayol tarixiy jarayonda ham doimiy qurbon bo‘lgan degan fikr ilgari suriladi. Bu satrlar ayolning tarixdagi o‘rniga nisbatan tanqidiy fikr uyg‘otadi. Tarixiy obrazlar orqali shaxsiy iztirobni ifodalash zamonaviy ayol shoiralar ijodida ham keng uchraydigan holatdir.

Gala bo‘lma, yakka bo‘l, toq bo‘l,
Ayol bo‘lib tug‘ilma Sharqda.

Mazkur satrlar nafaqat shaxsiy iztirob, balki ayolning jamiyat bilan murakkab munosabatini ham ifodalaydi. “Toq bo‘lish” jamiyat talab qiladigan “gala” bo‘lmaslik, o‘z ruhiy hududini himoya qilish, ichki mustaqillikni saqlab qolish istagini anglatadi. Zamonaviy identitet nazariyalariga ko‘ra, shaxsning jamiyat bilan to‘qnashuvi ko‘pincha ichki bo‘linish, rol konfliktlari va ruhiy begonalashuvni yuzaga keltiradi. Shoira ayoldan jamiyatning “gala” madaniyatiga qo‘shilishni emas, balki o‘z mustaqil ruhiy makonini saqlab qolishni talab qiladi. Shu tariqa, satrlardagi “yolg‘izlik” ruhiy tanazzul emas, balki estetik qarshilik va identitetni himoya qilish shaklidir.

Suv qizi bo‘l, ilonbaliq bo‘l,
Ayol bo‘lib tug‘ilma Sharqda.

Bu metaforalarda jamiyatdan begonalashish, tabiat bilan birlashish, o‘zga shakl kasb etish orqali o‘zlikni himoya qilish, ya’ni poetik niqob orqasidagi ruhiy ko‘rinmas norozilik ifodalanadi. U shunchaki g‘azab emas, balki shikoyat, san’at orqali dardni izhor qilishdir.

Zamonaviy o‘zbek shoiralari ijodida fojiaviylikning eng muhim ko‘rinishlaridan biri – bu identitet inqirozi, ya’ni shaxsning o‘z “men”ini anglash jarayonida yuzaga keladigan ichki parchalanish, o‘zlikning jamiyat tomonidan belgilangan rollar bilan mos kelmasligi natijasida tug‘iladigan ruhiy tanglikdir. Tahlil qilingan Zebo Mirzo, Gulnoz Mo‘minova she’rlari ayolning ruhiy, ijtimoiy va ekzistensial inqirozini turli poetik shakllarda ifodalaydi.

Zebo Mirzo lirikasi asosan romantik iztirob va javobsiz muhabbat bilan bog‘liq ichki ziddiyatlarni yoritadi. Uning ayol qahramoni sevgi orqali o‘zini topishga intiladi, biroq aynan sevgi unga o‘zlikni yo‘qotish xavfini soladi. “Butun umr sevib o‘tsam-u, bir lahza ham sevolmasangiz?” kabi savollar ayolning tan olinmagani, qadrsiz qolgan sevgisi uning identitetiga qanday zarba berishini ko‘rsatadi. Bu jarayon E.Erikson ta’riflagan “tan olinmaslik inqirozi” nazariyasi bilan uyg‘unlashadi.

Gulnoz Mo‘minovaning “Aytib bo‘lmaydigan qo‘shiq” she’rida esa ayol ruhiyati romantik maydondan chiqib, to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy bosim, gender tengsizligi va majburiy sukutning fojiaviy oqibatlari bilan to‘qnashadi. Shoira Sharq ayolining iztiroblarini umumiy insonga xos fojia deb biladi. “Ayol bo‘lib tug‘ilma Sharqda” satri nafaqat individual norozilik, balki jamiyat tomonidan qurilgan identitetning rad etilishi sifatida talqin etiladi. Ayolning sukutga majburlanishi, guvohlarning “ko‘r-u kar”ligi, ayolning o‘z hayoti ustidan hech qanday hukmga ega emasligi identitet inqirozining ijtimoiy ildizlarini ochib beradi.

Xulosa

Aytish mumkinki, tahlil etilgan she'rlarni birlashtiruvchi markaziy chiziq ayol shaxsining o'zligini topish jarayonidagi ichki va tashqi kurashdir. Zebo Mirzoda bu kurash romantik iztirob shaklida, G.Mo'minovada ijtimoiy tengsizlik va zulmga qarshilik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'zbek ayollar she'riyatida fojiaviylik ayolning identitet inqirozini anglashi ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Bu inqiroz shaxsiy tajriba doirasidan chiqib, jamiyat, tarix va madaniy ong bilan bog'liq kengroq ijtimoiy-estetik hodisaga aylanadi. Ayol ovozining tiklanishi esa nafaqat poetik jarayonning, balki ijtimoiy ongning ham transformatsiyasini anglatadi.

Adabiyotlar:

1. *Erikson E*. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W.Norton & Co., 1968. – 336 p.

2. *Beauvoir S. de.* The Second Sex / transl. by H. M. Parshley. – New York: Vintage Books, 1989. – 800 p.

3. *Батлер Дж.* Гендерное беспокойство: феминизм и субверсия тождества / Пер. с англ. – Москва: Ad Marginem, 2018. – 240 с.

4. *Гилберт С., Губар С.* Безумная на чердаке: женщина-писательница и литературное воображение XIX века / Пер. с англ. – Москва: Новое литературное обозрение, 2001. – 720 с.

5. *Базиневич С*. Гендерный дискурс в литературе. – Москва: Прогресс, 2003. – 256 с.

6. *Pratt A.* Archetypal Patterns in Women's Fiction. – Bloomington: Indiana University Press, 1981. – 211 p.

7. *Фуко М*. Истина и правовые формы / Пер. с франц. под ред. В.П.Визгина. – Москва: Наука, 1995. – 302 с.

8. *Фуко М*. Археология знания / Пер. с франц. Н.Мотрошиловой. – Москва: Гнозис, 1994. – 400 с.

9. *Showalter E.* A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. – Princeton: Princeton University Press, 1977. – 384 p.

10. *Hamdamov U.* Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernism. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.

11. *Ahmedova H.* She'rlar. Eng katta ustozlarim – o'qigan kitoblarim. Har bir inson ko'ngli – mo'jiza. Umid soyasi // Khurshid Davron kutubxonasi. – 2017 yil 30 sentyabr. [Elektron manba]. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/ uzbek/halima-ahmedova-sherlar-eng-katta-ustozlarim-oqigan-kitoblarim-har-bir-inson-kongli-mojiza-umid-soyasi.html (Murojaat etilgan sana: 19.03.2025)

12. *Honneth A*. The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts. – Cambridge: Polity Press, 1995. – 215 p

13. *Taylor Ch*. The Politics of Recognition // Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition. – Princeton: Princeton University Press, 1994. – Pp. 25–73.

14. *Гоготишвили Л.А*. Женская субъектность в литературе постмодерна // Вестник Московского университета. Серия 9: *Филология*. – 2015. – №2. – *С*. 56–63.

15. *Moi T*. Sexual / Textual Politics: Feminist Literary Theory. – London: Routledge, 2002. – 222 p.

THE ISSUE OF TRAGICITY AND IDENTITY CRISIS IN CONTEMPORARY UZBEK WOMEN'S POETRY

Durdonakhon V. Abdusalomova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(89). 70-76.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *women's poetry, identity, identity crisis, alienation from self, female image, tragicity.*

In contemporary literary discourse, the issue of personal identity crisis has emerged as one of the most urgent aesthetic and psychological problems. This phenomenon is closely connected with the individual's struggle to understand, defend, and renew the self, which inevitably leads to internal tension, collisions of relationships, and profound emotional distress. As psychologist Erik Erikson notes, "an identity crisis is a stage in which the individual examines themselves from different angles, engages in deep self-analysis, and ultimately begins the search for a new identity" [1. P. 91]. During this crisis, a person reconsiders who they are, as well as their position within society and its value system. When one fails to construct an autonomous sense of self, the inevitable outcome is identity disruption, depression, and a sense of "inner emptiness." Therefore, identity crisis manifests not only as a psychological experience but also as a social, cultural, philosophical, and aesthetic phenomenon.

The theme of identity crisis acquires particular significance in the works of women writers. In patriarchal societies, it is no secret that woman has long been perceived as the "other" in relation to man — an inferior or secondary subject. As Simone de Beauvoir argues, man has persistently been regarded as the universal standard, while woman has been interpreted as "the Other" in his shadow [2. P. 267]. This view complicates the woman's process of self-recognition. According to Beauvoir, "One is not born, but rather becomes, a woman" [2. P. 267], meaning that womanhood is continuously imposed on the individual through external social norms. As a result, the woman's existence as a human being is often overshadowed by gender constructs, deepening her internal psychological conflicts.

Post-independence Uzbek women's poetry has become a vivid artistic reflection of these inner processes. Whereas earlier women's poetry predominantly explored social and moral themes, in recent decades the focus has shifted toward the inner world of the lyrical persona - her psychological dilemmas, self-analysis, and pursuit of equality and freedom. Contemporary women poets no longer conceal their pain; instead, they transform it into an aesthetic phenomenon, articulating experiences of inner torment, loneliness, rejection, and spiritual emptiness through profound poetic imagery. As Ulug'bek Hamdam observes, "The poet turned from the external world toward the inner (batin) realm and began to observe the surrounding world from within" [3. P. 82], highlighting a new poetic orientation toward the delicate and painful dimensions of the human soul. In the words of poet Halima Ahmedova, "In truth, every human heart is a book full of miracles. Life turns its pages each day… where moments of joy and waves of sorrow alternate" [4].

References:

1. Erikson, E. (1968) *Identity: Youth and Crisis.* New York: W.W.Norton & Co.

2. Beauvoir, S. de. (1989) *The Second Sex* / transl. by H. M. Parshley. New York: Vintage Books.

3. Butler, J. (2018). *Gendernoe bespokojstvo: feminizm i subversiya tozhdestva* [Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity]. Moscow: Ad Marginem.

4. Gilbert, S., & Gubar, S. (2001). Bezumnaya na cherdake: zhenshchina-pisatel'nica i literaturnoe voobrazhenie XIX veka [The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination]. Moscow: Novoe literaturnoe obozrenie.

5. Bazinyevich, S. (2003). *Gendernyj diskurs v literature* [Gender Discourse in Literature]. Moscow: Progress.

6. Pratt, A. (1981). *Archetypal Patterns in Women's Fiction.* Bloomington: Indiana University Press.

7. Foucault, M. (1995). *Istina i pravovye formy* [Truth and Juridical Forms]. Moscow: Nauka.

8. Foucault, M. (1994). *Arheologiya znaniya* [The Archaeology of Knowledge]. Moscow: Gnosis.

9. Showalter, E. (1977). *A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing*. Princeton: Princeton University Press.

10. Hamdamov, U.(2020) *Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm* [World Literature: Modernism and Postmodernism].Tashkent: Akademnashr.

11. Ahmedova, H. (2017) *She'rlar & Eng katta ustozlarim – o'qigan kitoblarim & Har bir inson ko'ngli – mo'jiza & Umid soyasi* [Poems & My Greatest Mentors – The Books I Have Read & The Human Heart is a Miracle & The Shadow of Hope]. Khurshid Davron kutubxonasi. 30 sentabr. [Online]. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/ uzbek/halima-ahmedova-sherlar-eng-katta-ustozlarim-oqigan-kitoblarim-har-bir-inson-kongli-mojiza-umid-soyasi.html (Date of Access: 19.03.2025)

12. Honneth, A. (1995) *The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts.* Cambridge: Polity Press.

13. Taylor, Ch. (1994) *The Politics of Recognition // Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition.* Princeton: Princeton University Press.

14. Gogotishvili, L.A. (2015) Zhenskaya sub"ektnost' v literature postmoderna [Female subjectivity in postmodern literature]. Vestnik Moskovskogo universiteta. Series 9: Philology. No 2. Pp. 56-63.

15. Moi, T. (2002) *Sexual/Textual Politics: Feminist Literary Theory*. London: Routledge.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDUSALOMOVA Durdonaxon Valilullo qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: abdusalomovadurdona0@gmail.com